TIL O‘RGANISHNING XUSUSIYATLAR

Aliyev Diyorbek Zokirjon o‘g‘li
Student
Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: diyobbek17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning individual, psixologik va pedagogik xususiyatlari, til o‘rganish samaradorligini oshirishda o‘qituvchining roli, motivatsiya, ta’lim metodlari va muhit omillarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, chet tilini o‘rganishda kommunikativ yondashuv, mustaqil fikrlash va madaniy tafakkurning shakllanishi masalalariga ham e’tibor qaratilgan. Maqola zamonaviy ta’lim tamoyillariga asoslangan holda tahliliy tarzda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: til o‘rganish, motivatsiya, metodika, pedagogik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, ta’lim muhiti, shaxsiy xususiyatlar.

Abstract: This article analyzes the individual, psychological, and pedagogical characteristics of learners in the process of language acquisition. It examines the teacher’s role in enhancing learning effectiveness, as well as the importance of motivation, teaching methods, and environmental factors. Special attention is given to communicative approaches, the development of independent thinking, and the formation of cultural awareness in foreign language learning. The article is presented in an analytical manner, based on the principles of modern education.

Keywords: language learning, motivation, methodology, pedagogical approach, communicative competence, learning environment, personal characteristics

Аннотация: В данной статье анализируются индивидуальные, психологические и педагогические особенности учащихся в процессе изучения языка. Рассматривается роль преподавателя в повышении эффективности обучения, а также значение мотивации, методов преподавания и факторов образовательной среды. Особое внимание уделено коммуникативному подходу, развитию самостоятельного мышления и формированию культурного сознания при изучении иностранного языка. Статья изложена в аналитическом формате на основе современных принципов образования.

Ключевые слова: изучение языка, мотивация, методика, педагогический подход, коммуникативная компетенция, образовательная среда, личностные особенности.

Til insonning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatini ifodalovchi eng muhim vositadir. Tilni o‘rganish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish, balki madaniy, psixologik va ijtimoiy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik nuqtayi nazardan til

o‘rganish o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga, tafakkurini kengaytirishga va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli til o‘rganishdagi xususiyatlarni o‘rganish bugungi ta’lim tizimi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [1].

Til o‘rganish - bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro faol ta’sir jarayoni bo‘lib, u tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki motivatsiya beruvchi, yo‘naltiruvchi va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi shaxs sifatida ishtirok etadi [2]. Til o‘rgatishda samarali metodlarni tanlash, darsni o‘yin, muloqot, loyiha yoki muhokama shaklida tashkil etish o‘quvchilarni faol ishtirokchi qiladi [3].

Har bir o‘quvchining tilni o‘zlashtirish tezligi, eslab qolish darajasi va e’tiborini jamlash qobiliyati turlicha bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi individual yondashuvni qo‘llashi zarur . Yosh xususiyatlari, temperament, o‘quvchining o‘ziga ishonchi va ichki motivatsiyasi til o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, extrovert o‘quvchilar muloqotda faol bo‘lishsa, introvertlar yozma mashqlar orqali yaxshiroq natija ko‘rsatishlari mumkin [4].

Til o‘rganishda motivatsiya - eng muhim jabhalardan biri. Ichki motivatsiya (qiziqish, o‘zini rivojlantirish istagi) va tashqi motivatsiya (imtihon, baho, ishga joylashish ehtiyoji) o‘quv jarayonini harakatga keltiradi va tezroq natijaga erishih uchun muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarda ichki motivatsiyani uyg‘ota olgan taqdirdagina o‘rganish jarayoni samarali kechadi [5].

Til o‘rganish - bu murakkab, ammo ijodiy jarayon. U nafaqat bilim olishni, balki shaxsiy rivojlanish, muloqot madaniyati va tafakkur kengayishini,o ‘zga millat mintaleteti bilan tanishish imkonini ham ta’minlaydi. O‘qituvchi til o‘rganishdagi shaxsiy, psixologik va metodik xususiyatlarni inobatga olgan holda darsni tashkil etsa, natijalar o ‘ylangani kabi yuqori va samarali bo‘ladi. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, motivatsiyani uyg‘otish, madaniy qadriyatlarni singdirish - samarali til o‘rganishning kaliti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2018). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Hasanov, S. (2020). Til o‘rganish psixologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Karimova, D. (2019). Pedagogik psixologiya. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.